

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI

GULNOZA NAZRULLAYEVA

BADIIY TARJIMADA PERSONAJ
NUTQINING QAYTA YARATILISHI

Toshkent – 2025

Gulnoza Nazrullayeva. Badiiy tarjimada personaj nutqining qayta yaratilishi. – Toshkent, TDSHU, 2025. – 140 b.

ISBN: 978-9910-8282-9-4

UO'K: 82-2

KBK: 83.7

N – 32

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti “Tarjimashunoslik, tilshunoslik va xalqaro jurnalistika” kafedrasida tayyorlangan ushbu monografiyada badiiy tarjimada personaj nutqining qayta yaratilishi masalalari hindiydan o‘zbek tiliga tarjimalar misolida ko‘rib chiqiladi. Tadqiqotdan olingan amaliy natijalar va chiqarilgan nazariy xulosalar nafaqat hindiydan ona tilimizga, balki boshqa tillar orasida amalga oshirilgan tarjimalar ustida ish olib borayotgan tadqiqotchilar va yosh mutaxassislar uchun foydali bo‘ladi, deb o‘ylaymiz.

Mas’ul muharrir va so‘zboshi muallifi:

Xayrulla Hamidov
filologiya fanlari doktori, professor

Taqrizchilar:

Samida Mustafayeva
filologiya fanlari doktori, dotsent

Ergash Ochilov
filologiya fanlari nomzodi, professor

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Kengashining 2025-yil 30-sentabr 2-sonli qarori bilan nashrga tavsiya etilgan.

© G.Nazrullayeva.

© Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, 2025

SO'ZBOSHI

Badiiy asarga xos milliylik personajlarning xulq-atvori, o'y-xayollari, gap-so'zlari, maqol-iboralar, qolaversa, muallifning voqea-hodisalarga munosabatida o'z aksini topadi. Buni tarjimada to'laqonli aks ettirish asarning badiiy-estetik, stilistik jihatlarini boshqa tilda to'laqonli qayta yaratish vazifasini yuklaydi. Bu esa tarjimondan asarning tili, shu xalqqa xos milliy xususiyatlarni chuqur bilishni talab etadi. Shuningdek, asliyatga xos milliylik personajlar nutq' orqali ham yaqqol namoyon bo'ladi.

Badiiy asar tarjimasida personajlar nutqini to'laqonli, butun badiiyligi bilan ifodalab berish tarjimondan katta mahorat va ijodkorlik talab qiladi. Har bir personajning nutqi uning ma'naviyati, xulq-atvori, kasb-kori, hayotiy tajribasi, ruhiy olami, yoshi va boshqa o'ziga xosliklarini ko'rsatib turadi.

G.Nazrullayevaning ushbu tadqiqot ishida manba sifatida olingan hind adiblari Krishan Chandarning "Bir qizga ming oshiq", Premchandning "Fidoyi", Yashpalning "Raqqosa", Bhisham Sahniyning "Basantiy" romanlari va bu asarlarning o'zbek tiliga tarjimalarida muhim o'rin tutgan personajlar nutqi ularda tasvirlangan davr, qahramonlar mansub bo'lgan ijtimoiy qatlamning o'ziga xosliklari bilan chambarchas bog'liq.

Badiiy asar tarjimasida personajlar nutqini qayta yaratishda lisoniy omillar bilan birga, personajlarning dunyoqarashi, ma'naviyati, xulq-atvori, kasb-kori, hayotiy tajribasi, ruhiyati, yoshi, jinsi kabi madaniy va ijtimoiy omillarning muhimligi dalillanganligi; hindiy va o'zbek tillaridagi murojaat shakllarining nominativ, identifikativ, chorlash va emotiv vazifalari, ularning kontekstual vaziyatga ko'ra qo'llanishi hamda gender xoslanishidagi universal va differensiyalar asoslanganligi; personajlar nutqidagi frazeologizmlarning milliy-madaniy xususiyatlari ochib berilib, ularning tarjimasida qo'llanilgan analogiya, to'la ekvivalentlik, muqobillik, tasviriy, kalka va tushirib qoldirish usullari aniqlanganligi va personajlar nutqidagi vulgarizmlarda salbiy aksiologik munosabatning reallashuvi dalillangan, so'kish so'zlarining erkaklar, qarg'ish so'zlarining ayollar nutqiga xosligi aniqlangan, vulgarizmlar tarjimasining asliyatga moslik darajasi isbotlanganligi Gulnoza

Nazrullayeva olib brogan tarjimashunoslik tadqiqotining ilmiy yangiligini tashkil etadi.

Personajlar nutqi badiiy asarlardagi obrazlar qaysi ijtimoiy tabaqaga masubligi, qaysi toifa vakillari ekanligini ham yaqqol ko'rsatib turadi. Biroq tadqiqotchi tarjimonlar milliy tilning umum-adabiy me'yorlari va muallifning dunyoqarashini ifodalovchi individual uslubini ba'zan farqlay olmaganliklari, personajlar nutqiga xos arxaik va jonli nutqqa xos so'zlar, sheva unsurlariga yetarli e'tibor bermaganliklari oqibatida bu borada xatoliklarga yo'l qo'yganliklari kabi holatlar kuzatilganini ta'kidlaydi.

Ma'lumki, tarjima jarayonida milliylikni qayta yaratish borasidagi arziyas bir xato ba'zida butun boshli millat haqida noto'g'ri tasavvur paydo qilishi mumkin. Masalan, o'zbeklar kattalarga "siz" deb murojaat qilinadi. Biroq asarlarning boshqa tilga tarjimalarida "siz" olmoshi ko'pincha "sen"ga aylantiriladi. Bunday yondashuv tarjima tilida oddiy narsa bo'lishi mumki, ammo o'zbeklarga xos xususiyat saqlanmagan bo'ladi. Yoki buning teskarisi ham bo'lishi mumkin... Mohir tarjimon buning farqiga boradi. Shunga o'xshash yana bir vaziyat. Abdulla Qodiriyning "Mehrobdan chayon"da Nigor oyim turmush o'rtog'i – Solih maxdumga "Ra'no" deya murojaat qiladi. Chunki o'zbeklarda er-xotinlar bir-birlarini farzandlari (asosan, to'ng'ich farzandlar) ismini aytib chaqirishgan (murojaatning bunday shakli hozirda juda kam uchraydi): *"Nigor oyim yugurib erining orqasidan chiqdi: – Hay, Ra'no! – dedi havlida ketib borgan maxdumga, – nonlarimizning suvi qochqan, xamir qilishg'a vaqt oz, bozordan issig' non oldirasizmi? Bu gap maxdumga adras to'nning alami ustidan tuz sepkan ta'sirini berdi"*¹. Bu badiiy asardagi personaj nutqi. Uni tarjimada qayta yaratish alohida muammoni tashkil etadi.

Qo'lingizdagi ushbu tadqiqot ishi natijalari o'zbek va hind xalqlari o'rtasida ijtimoiy-madaniy aloqalarning rivojlanishi uchun zarur manba hisoblanadi. Shuningdek, tadqiqot ishi tarjimashunoslik, tarjima amaliyoti, chog'ishtirma tilshunoslik, leksikografiya va madaniyatlararo muloqot uchun muhim ilmiy-nazariy ma'lumotlar berish bilan birga, ushbu sohalarda darslik, o'quv qo'llanma va

¹ Qodiriy A. Mehrobdan chayon (Xudoyorxon va munshiylari hayotidan tarixiy ro'mon), 1933-yildagi 2-nashr asosida tayyorlangan, Yangi asr avlodi. – Toshkent: 2012. – B.96.

lug'atlar tayyorlanishida manba bo'lib xizmat qiladi.

Hindiy tilidagi jins kategoriyasining o'zbekcha tarjimalarda berilishidagi murakkabliklar nolisoniy vositalar yordamida bartaraf etilishi aniqlangan ushbu tadqiqot tarjimonlarning yutuq va kamchiliklari haqida qayd etilgan ayrim takliflar tarjimashunoslikka oid tadqiqotlar yaratish hamda til o'rganuvchi tarjimonlarda tilning leksik-stilistik xususiyatlarini anglash kompetensiyasini shakllantirishda zarur manba bo'ladi. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati badiiy asarni hindiy tilidan o'zbek tiliga tarjima qilish jarayonida personaj nutqining qayta yaratilishiga doir nazariy fikrlarning ilgari surilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqotda asliyat va tarjima asarining tarjimashunoslik aspektida tadqiq etilganligi tarjima nazariyasi, leksikologiya, stilistika sohalarini uzviylikda o'rganish bilan bog'liq ilmiy-nazariy qarashlarni to'ldiradi va kengaytiradi, badiiy tarjima masalalarini yangi ma'lumotlar bilan asoslashga xizmat qiladi.

Yozuvchining badiiy mahorati tadqiqi original asar saviyasini baholashga ko'mak bersa, asardagi badiiylik va milliy o'ziga xoslikning tarjimada aks etishi masalalarining obyektiv tadqiq etilishi tarjima sifatini baholashga yordam beradi. Bunda milliylikni qayta yaratish uchun tarjimonning o'z tili badiiy tasvir va ifoda vositalari, portret yaratish san'ati, personajlar nutqi va milliy xos so'zlarni berish mahoratini tavsiflash muhim hisoblanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati shundaki, undan chiqarilgan ilmiy xulosalar va nazariy umumlashmalardan O'zbekistondagi oliy o'quv yurtlari xorijiy filologiya va sharq filologiyasi fakultetlarida "Tarjima nazariyasi", "Tarjima stilistikasi", "Tarjima amaliyoti", "Tarjima tanqidi" fanlari bo'yicha ma'ruzalar o'qish, amaliy va seminar mashg'ulotlari olib borish, hind va o'zbek adabiy aloqalari bo'yicha maxsus kurslar o'tish, seminarlar uchun o'quv qo'llanma va darsliklar yaratish, hindiy tilining badiiy tasviriy vositalari lug'ati va muallif leksikasi lug'atini tayyorlashda foydalanish mumkin.

Xayrulla Hamidov,
filologiya fanlari doktori, professor

KIRISH

Tarjimashunoslik sohasida olib borilgan tadqiqotlarning deyarli barchasida personaj nutqining asliyatdagi o'rni va uni badiiy tarjimada qayta yaratilishi masalasi izlanuvchilarning diqqat-e'tiborini tortib keladi. Xususan, tarjimalarda personajlar nutqini qayta yaratishda kommunikantlarning psixologik holati, borliqdagi narsa-hodisalarga munosabati, muloqot vaziyati, kontekst, til egalarining milliy-madaniy xususiyatlarini adekvat talqin qilish asliyat mazmunini saqlagan holda, uni lisoniy va semantik nuqtayi nazardan qayta yaratishda dolzarblik kasb etadi.

Dunyo adabiyotida tarjima asarlari turli xalqlarning adabiyoti, madaniyati, an'analari, urf-odatlar va tafakkur tarzini o'rganishda qimmatli manba bo'lib hisoblanadi. Hozirgi kunga qadar tarjimashunoslikda hind adabiyoti durdonalarini o'zbek tiliga tarjima qilish va ularni tadqiq etish borasida muayyan ishlar amalga oshirilgan bo'lsa-da, badiiy tarjimada personaj nutqining qayta yaratilishi masalasi kompleks tarzda o'rganilmagan.

Mamlakatimizda olib borilayotgan keng miqyosli islohotlar davrida O'zbekiston va Hindistonning hamkorlik aloqalari yangi bosqichga ko'tarilib, ikki davlat orasida ilm-fan, madaniyat, adabiyot sohasida munosabatlar tobora mustahkamlanib bormoqda. "Dunyodagi har qaysi davlat, har qaysi millat birinchi navbatda o'zining intellektual salohiyati, yuksak ma'naviyati bilan qudratlidir. Bunday yengilmas kuch manbayi esa, avvalo, insoniyat tafakkurining buyuk kashfiyoti – kitob va kutubxonalarda, desak, adashmagan bo'lamiz"².

O'zbekiston uchun dunyo xalqlari bilan turli sohalarda do'stona aloqalarni yo'lga qo'yish mamlakatda ro'y berayotgan islohotlarning yangi davrida ustuvor vazifalardan sanaladi. Hindiston va O'zbekiston o'rtasidagi ikki tomonlama hamkorlik masalasi har doim davlat siyosati darajasida bo'lib kelgan. Hozirgi kunda buyuk o'tmishga ega bu ikki qadimiy davlat o'rtasidagi hamkorlik yangi bosqichga ko'tarildi.

² <https://kknews.uz/oz/54384.html>

Badiiy tarjima masalalari qator tadqiqotchilarning e'tiborini tortib kelmoqda³. Badiiy tarjimada personaj nutqi bilan bevosita bog'liq masalalar g'arb tarjimashunosligida A.Lefevr, A.Noyber, G.Tomson va P.Nyumarklarning ishlarida muayyan darajada o'rganilgan⁴. Rus tarjimashunosligida V.V.Vinogradov, A.V.Fyodorov, K.Chukovskiy, Y.N.Karaulov, V.I.Karasik va V.N.Komissarovlarning izlanishlarida personaj nutqi pragmatikasi hamda badiiy asar tarjimasida personaj nutqining qayta yaratilishi xususida so'z yuritilgan⁵.

Masalaning ayrim jihatlarini hind tarjimashunosligida amalga oshirilgan tadqiqotlarda ham o'z ifodasini topgan. Xususan, tarjimashunoslik va uning nazariy asoslari bo'yicha S.Chaudhuri, A.K.Singh, D.Anisha, M.S.Dvivedi, S.K.Sarin, S.Mukherji, S.Aleks, R.Varmma va S.R.Sarajular tadqiqotlar olib borganlar⁶. Shuning-

³ Виноградов В.С. Лексические вопросы перевода художественной прозы. – М.: Изд-во МГУ, 1978. – 174 с.; Влахов С., Флорин С. Непереводимое в переводе. Реалии // Мастерство перевода. – М., 1970. – 432 с.; Федоров А.В. Искусство перевода и жизнь литературы. – Л.: Советский писатель, 1983. – 352 с.; Федоров А.В. О художественном переводе. – Л.: Гослитиздат, 1941. – 260 с.; Чуковский К. Высокое искусство. – М.: Советский писатель, 1988. – 348 с.; Чуковский К. Мастерство перевода. – М.: Советский писатель, 1970. – 591 с.; Гарбовский Н.К. Теория перевода. – М.: МГУ, 2007. – 280 с.; Бреус Е.В. Основы теории и практики перевода с русского языка на английский – М., 2000. – 340 с.

⁴ Lefevere A. Translating Literature: Practice and Theory in a Comparative Literature Context. – America, 1992. – 102 p; Neubert A. Pragmatische Aspekte der Übersetzung // Übersetzungswissenschaft. – Darmstadt: Wissenschaftliche Buchgesellschaft, 1981. – 75 p.; Thomson-Wohlgemuth G. Children in Literature and its Translation. An overview: Postgraduate diploma/MA in translation / G.Thomson-Wohlgemuth. – Surrey, 1988. – 161 p; Newmark P. A Textbook of Translation. – New York and London: Prentice Hall, 1988. – 200 p.

⁵ Виноградов В. О художественной прозе. – М. – Л.: ГИЗ, 1930. – 135 с.; Федоров А.В. Введение в теорию перевода // Лингвистические проблемы. – М., 1958. – С. 169; Чуковский К. Высокое искусство. – М.: Советский писатель, 1988. – 348 с.; Чуковский К. Мастерство перевода. – М.: Советский писатель, 1970. – 591 с.; Караулов Ю. Русский язык и языковая личность. – М., 1987. – 280 с.; Карасик В. Языковой круг: личность, концепты, дискурс. – Волгоград, 2002. – 280 с.; Комиссаров В.Н. Современное переводоведение. – М.: ЭТС, 2002. – 260 с.

⁶ Chaudhury S. Translation and Understanding. – Delhi: Oxford University Press, 1999. – 180 p. ; Singh A.K. History of Translation in India // Translation in/and Hindi Literature. – Mysuru: National Translation Mission, CIIL, 2017. – 86 p.; Anisha D. Translation in India: Then and Now // Journal of Emerging Technologies and Innovative Research (JETIR) – 2018. – 420 p.; Dvivedi M.S. Harish Trivedi and his work // Translation and interpreting. – New Delhi (India): Modlingua, 2022. – 110 p.; Sarin S.K. Translation in India: history and politics // Revista Brasileira de Tradutores. – 2010. – 89 p.; Mukherji S.

dek, R.Shrivastav, V.Sadarangani, A.Kumarning izlanishlarida tarjima muammolari va tarjimada personaj nutqining berilishi borasidagi fikrlar va tahlillarni uchratish mumkin⁷.

O'zbek tarjimashunosligida badiiy tarjimaning milliylik, badiiylikning tarjimada qayta yaratilishi, ekvivalentlik va lisoniy adekvatlik kabi masalalari G'.Salomov, J.Sharipov, N.Vladimirova, Q.Musayev, X.Xomidov, Sh.Usmonova⁸, E.Ochilov, R.Shirino-va, Sh.Abdullayev, N.Isamuxamedova, Sh.Ibrohimova, N.Xodja-yeva, N.Ismatullayeva va boshqa olimlarning monografiya va dissertatsiyalarida ko'rib chiqilgan⁹. Biroq bugungi kunga qa-dar hindiydan o'zbek tiliga tarjima qilingan badiiy asarlar tarji-masida personaj nutqining qayta yaratilish xususiyatlari maxsus o'rganilmagan.

Ushbu tadqiqotning maqsadi hindiy tilidan o'zbek tiliga tar-jima qilingan badiiy asarlarda personaj nutqining qayta yarati-

Translation as Recovery. – Delhi: Pencraft International, 2004. – 120 p.; अलेक्स सा अनुवाद: प्रक्रिया एवं व्यवहारिकता – नई दिल्ली: Authors Press, 2016. – 320 p.; वर्मा रा अच्छी हिन्दी। - इलाहाबाद: लोकभारती प्रकाशन, 2005. – 320 p.; सराजु शारा आज की हिन्दी और अनुवाद की समस्याएँ। – हैदराबाद: मिलिंद प्रकाशन, 2007. – 320 p.

⁷ श्रीवास्तव रा अंग्रेजी उपन्यासों के हिन्दी अनुवाद। – लखनऊ: लखनऊ विश्वविद्यालय, हिंदी तथा आधुनिक भारतीय भाषा विभाग, 2002. – 136 p.; सदारंगानी वा अनुवाद की समस्याएँ: पीएच.डी.हेतु शोध प्रबंध। - अहमदाबाद: गुजरात युनिवर्सिटी, 2009. – 200 p.; Kumar A. The English translation of Premchand's prose fiction: a study in the theory of translation: PhD dissertation. – Varanasi: Kashi Vidyapeeth, 1990. – 210 p.

⁸ Usmanova Sh. Lingvomadaniyat-shunoslik. – Toshkent: Bookmany print, 2022;

⁹ Саломов F. Таржима назарияси асослари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1983. – 172 б.; Саломов F. Адабий анъана ва бадий таржима. – Тошкент: Фан, 1980. – 168 б.; Саломов F. Тил ва таржима. – Тошкент: Фан, 1966. – 156 б.; Шарипов Ж. Ўзбекистонда таржима тарихидан. – Тошкент: Фан, 1965. – 135 б.; Шарипов Ж. Бадий таржималар ва моҳир таржимонлар. – Тошкент: Фан, 1972. – 136 б.; Комилов Н. Бу қадимий санъат. – Тошкент: Адабий мерос, 2000. – 182 б.; Мусаев Қ. Таржима назарияси асослари. – Тошкент: Фан, 2005. – 89 б.; Хомидов Х.Х. Ўзбек қисса ва романларининг туркча таржималарида миллийлик, бадийлик ва лисоний адекватлик масалалари: Филол. фан. д-ри (DSc)... дисс. – Тошкент, 2021. – 235 б.; Усмонова Ш. Ўзбек ва турк тилларида соматик фразеологизмлар: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 1998. – 140 б.; Очилов Э. Таржимашуносликнинг назарий масалалари. – Тошкент, 2014. – 287 б.; Бадий таржима дўстлик қуроли. – Тошкент: Ўқитувчи, 1974. – 128 б.; Бадий таржиманинг актуал масалалари. – Тошкент: Фан, 1977. – 227 б.; Иброҳимова Ш. О.Ёқубов романларидаги миллийликнинг туркча таржималарда акс этиши: Филол. фан номз. ... дисс. – Тошкент, 2010. – 190 б.; Ходжаева Н.Б. Премчанд асарлари ўзбекча таржималарининг лексик-стилистик хусусиятлари: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2019. – 135 б.

lish qonuniyatlarini aniqlash hamda lisoniy, madaniy va ijtimoiy omillarning o'rnini belgilashdan iborat bo'lib, uning oldiga Krishan Chandarning "Bir qizga ming oshiq", Premchandning "Fidoyi", Yashpalning "Raqqosa", Bhisham Sahniyning "Basantiy" romanlarining o'zbek tiliga tarjimasida personajlar nutqining berilishi masalasini yoritish hamda ularda lisoniy va noli-soniy omillarning o'rnini aniqlash; hindiy va o'zbek tillarida murojaat shakllarining kommunikativ-funksional, emotiv va gender xususiyatlarini aniqlash; personajlar nutqidagi frazeologizmlarning milliy-madaniy xususiyatlarini ochib berish va ularni tarjima qilish usullari belgilash va personajlar nutqidagi vulgarizmlarda aksiologik munosabatning ifodalanishini ko'rsarish va ularning tarjimada berilishini asoslash kabi muhim vazifalar qo'yilgan. Tadqiqot mavzusini yoritishda tavsiflash, tasniflash, asliyat va tarjimaning o'zaro mosligini chog'ishtirish, komponent va semantik tahlil usullaridan foydalanildi.

MUNDARIJA

SO‘ZBOSHI	4
KIRISH	7
I bob. Tarjimashunoslikda “personaj nutqi” tushunchasi va uning nazariy asoslari	10
1.1. Badiiy tarjimada personaj nutqini berish masalasiga ilmiy yondashuvlar	10
1.2. Hind tarjimashunosligida personaj nutqining o‘rganilishi	26
II bob. Tarjimada personaj nutqini berish usullari	38
2.1. Personajlar nutqidagi murojaat so‘zlarining tarjimada berilishi	38
2.2. Ayol va erkaklar nutqining o‘ziga xosliklari va ularning tarjimada ifodalanishi	53
III bob. Personajlar nutqida qo‘llanilgan turg‘un birikmalar va ularning tarjimada berilishi	62
3.1. Personajlar nutqidagi frazeologizmlarni tarjima qilish usullari	62
3.2. Personajlar nutqidagi vulgarizmlarning tarjimada ifodalanishi	92
XULOSA	113
Badiiy tarjimada personaj nutqining qayta yaratilishi – millatning ovozini saqlash san’atidir (So‘ngi so‘z o‘rnida)	116
Literary Translation – A Bridge Between Cultures	118
Shartli qisqartmalar	120
Tadqiqot mavzusi bo‘y‘cha e‘lon qilingan ishlar ro‘yxati	121
Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati	123

Gulnoza Nazrullayeva. Badiiy tarjimada personaj nutqining qayta yaratilishi. – Toshkent, TDSHU, 2025. – 140 b.

ISBN: 978-9910-8282-9-4

UO'K: 82-2

KBK: 83.7

N – 32

Mas'ul muharrir va so'zboshi muallifi:

Xayrulla Hamidov
filologiya fanlari doktori, professor

Taqrizchilar:

Samida Mustafayeva
filologiya fanlari doktori, dotsent

Ergash Ochilov
filologiya fanlari nomzodi, professor

*Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Kengashining 2025-yil
30-sentabr 2-sonli qarori bilan nashrga tavsiya etilgan.*

Bosishga ruxsat etildi 20.10.2025.

Bichimi 60x84 1/16. «Times Uz» garniturası.

Ofset bosma usulida bosildi.

Shartli bosma tabog'i: 8,75. Nashriyot bosma tabog'i: 8,75. Tiraji:
50. Buyurtma № ...

© G.Nazrullayeva.

© Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, 2025